



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA  
XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**XALQARO ILMIIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



**2025-yil 18-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**

**2025-yil 18-oktabr**

**Toshkent – 2025**

## LAKUNA VA REALIYA MUNOSABATI THE RELATIONSHIP BETWEEN LACUNA AND REALIA

10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/MIMP5542

**Baxodirova Shaxlo Baxodirovna**

PhD, katta o‘qituvchi

Fan va texnologiyalar universiteti

[Shakhlo.bakhodirova@mail.ru](mailto:Shakhlo.bakhodirova@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy asarlari misolida lakuna va realiya munosabati tahlili keltiriladi. Lakuna va realiya ko‘p hollarda o‘xshash hodisa sifatida tahlil qilinadi, ammo bir-biridan farq qiluvchi tushunchalardir. Lakuna hodisasini realiyaga sinonim sifatida qo‘llash to‘g‘ri emas. Ularning sinonim sifatida qo‘llanilishi realiyaning birlik tushunchasi doirasini qisqartirib yuborishi bilan bir qatorda, noto‘g‘ri yondashuvni yuzaga keltiradi. Chunki lakuna o‘z nomi bilan “bo‘shliq”, “nomlanmagan tushuncha” ma’nolarini ifodalaydi. Lakuna hodisasini madaniyatlarda mavjud tushunchalarning so‘z ifodasi yo‘qligiga nisbatan qo‘llash maqsadga muvofiq.

**Kalit so‘zlar:** lakuna, realiya, muqobil so‘z, bo‘shliq, oq dog‘lar, neologizm, leksika

**Annotation.** This article analyzes the relationship between lacuna and reality using the works of Abdulla Qodiriy as an example. Lacuna and reality are often analyzed as similar phenomena, but they are different concepts. It is not correct to use the phenomenon of lacuna as a synonym for reality. Their use as a synonym not only narrows the scope of the concept of unity of reality, but also creates an incorrect approach. Because lacuna by its name expresses the meanings of “gap”, “unnamed concept”. It is appropriate to apply the phenomenon of lacuna to the lack of verbal expression of concepts existing in cultures.

**Keywords:** lacuna, reality, alternative word, gap, white spots, neologism, lexicon.

Til – inson tafakkuri va madaniyatining eng muhim ifoda vositasi bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlar, ilmiy, madaniy va estetik qadriyatlarining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi o‘ringa ega. Har qanday til uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi, o‘zgaradi, boyiydi yoki ayrim jihatlari yo‘qoladi. Shu jarayonda tilshunoslikda muhim bo‘lgan hodisalar – arxaizm va lakunalar til taraqqiyotining o‘ziga xos belgilaridan biri sifatida maydonga chiqadi.

Jahon tilshunosligida siyosiy-tarixiy tilshunoslik lug‘aviy birliklar taraqqiyoti, struktur-semantik o‘zgarishlar, tilning lug‘at sathidagi eskirgan, zamonaviy, yangi qatlamning yuzaga kelish omillariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham mavjud.

Lakuna – biror bir tilda ekvivalent tushunchaning mavjud emasligi natijasida yuzaga keladigan “oq dog‘lar”, “bo‘shliq”dir [Eynullayeva, 2003: 8]. Bunday


yondashuv faqat tor ma’noda, tilning leksik qatlami doirasida tushuniladi. Masalan, tilshunos olim L.S.Barxudarov ekvivalentsiz leksikani tasnif qilar ekan, bir guruh “tasodifiy lakunalar”ni ajratadi va tillarning biridagi bu leksik birlik qaysidir sabab bilan boshqa tilda so‘z shaklida yoki turg‘un birikma shaklida mavjud bo‘lmaydi [Бархударов, 1975: 93] deb ta’kidlaydi.

“Lakuna tilda ham tushuncha, ham so‘z holida mavjud bo‘lmagan, ammo tilda faqat tushuncha holida mavjud bo‘lgan birlik. Realiya (biror tilda?) ham tushuncha, ham so‘z holida mavjud bo‘lgan, ammo (boshqa?) tilda tushuncha holida ham, so‘z holida ham mavjud bo‘lmagan birlikdir” [Ҳасанов, 2021:13].

Masalan, yo‘ldagi ko‘ndalang bo‘rtiq, qo‘lning tirsakdan yelkagacha bo‘lgan qismi – hali tilimizda nomlanmagan.

Lakuna bilan o‘xshash tushunchalardan biri – realiyadir. Aksariyat o‘rinlarda ekvivalentlarga ega bo‘lmagan maishiy va o‘ziga xos milliy so‘zlar va iboralar, shuningdek, boshqa tillarda mavjud bo‘lmagan milliy turmush tarzidagi so‘zlar realiya sifatida keltirilgan.

Madaniy birliklarni o‘rgangan olimlarning fikriga ko‘ra, lakunalar va realiyalar orasidagi chegara juda shartli va juda o‘zgaruvchidir. Ammo ularni bir xil tushunchalar sifatida baholash ham to‘g‘ri emas. Lakuna va realiyalar quyidagicha farqlanadi:



Abdulla Qodiriy asarlarida realiyalar ham uchraydi. Adib *tutal* nomli so‘z o‘yini haqida ma’lumot bergan. Bu o‘yin boshqa madaniyatda kuzatilmaydi. Qizig‘i shundaki, o‘zbek xalqining hozirgi davrida ham uchramaydi. Tutal– biron fikrni telba-teskari ifodalash so‘z o‘yini; masalan: oltita qozon oldim; to‘rttasi teshik, ikkitasining tagi yo‘q: *Chunki faqiringiz bu bazmning a‘zolaridan bir fard; barakallachilaridan bir mengrov; qiyquriqchilqridan bir tutal, ham charchamayturg‘an bir tentak chapakchisi.* “Olti yillik bazm” [Diyori bakr, 2007: 201].

*Ezib ichki* - suv yoki choyga chayqab ezib ichsa go‘yo davo bo‘ladigan duo qog‘ozi. *Sanga yolg‘on, xudog‘a chin uka; yeti don Haftakni kushod ezib ichki qildim, Chol kitobing bilan So‘foqiyoringdan to‘rttasi nuqul varvarakka dardarak bo‘lipti* [Diyori bakr, 2007:284].

A.Hasanov lakuna tushunchasi haqida shunday deydi: “Ma‘lumki, ikki leksik tizimni qiyoslashda kuzatiluvchi lingvistik hodisalar ekvivalentlik va ekvivalentsizlik tushunchalari orqali umumlashtiriladi. Lakuna va realiya hodisalari ekvivalentsizlikning tarkibiy qismi sifatida qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud bo‘lmagan birlikni ifodalashga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, ekvivalentsizlik lakuna va realiya hodisalarini umumlashtiruvchi giperonim tushunchadir” [Хасанов, 2021:13]. Lakuna biror tilda yoki til ichida tushunchaning mavjudligi, ammo leksik vosita orqali ifodalanmasligini bildirsa, realiya muayyan tilga xos, boshqa tilda mavjud bo‘lmagan tushunchalar va ularning nomlarini anglatadi.

Lakuna hodisasini realiyaga sinonim sifatida qo‘llash to‘g‘ri emas. Ularning sinonim sifatida qo‘llanilishi realiyaning birlik tushunchasi doirasini qisqartirib yuborishi bilan bir qatorda, noto‘g‘ri yondashuvni yuzaga keltiradi. Chunki lakuna o‘z nomi bilan “bo‘shliq”, “nomlanmagan tushuncha” ma‘nolarini ifodalaydi. Lakuna hodisasini madaniyatlarda mavjud tushunchalarning so‘z ifodasi yo‘qligiga nisbatan qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu holda “muloqot vositasi bo‘lgan tilda so‘z orqali ifodalanishi kerak bo‘lgan, ammo ifodalanmagan” tushunchaga nisbatan “bo‘shliq”, “bo‘sh qolgan, to‘ldirilmagan o‘rinlar” sifatida yondashiladi.

Realialarni “bo‘shliq” sifatida baholash to‘g‘ri emas. Negaki realiya ifodalagan tushuncha boshqa madaniyatda kuzatilmaydi, o‘z-o‘zidan, uni nomlash zarurati ham bo‘lmaydi.

Lakunar birliklar tushunchasi lingvokulturologiyaga oid tushunchalardir. Termin ham, dastavval, so‘z bo‘lgani uchun xalqning qadriyatlarini, milliy-madaniy munosabatlarini, kasallikka berilgan bahoni qamrab oladi. Lakunar birliklarga keladigan bo‘lsak, adabiyotlarda bu terminga yondosh tushunchalar mavjudligi, ba‘zi manbalarda realiya bilan aralash holda qo‘llanganligi, ba‘zi olimlar tomonidan manbalarda termin va realiya bir-biriga yondosh tushuncha sifatida baholanganligini ko‘ramiz. Masalan, ruminiyalik olimlar S.Florin, S.Vlaxov shular jumlasidandir.

Realialarga bir xalq hayotiga (turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy rivojlanishiga) xos va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan obyektlarni anglatuvchi, milliy va tarixiy koloritni aks ettiruvchi va odatda boshqa tillarda aniq to‘g‘ri keladigan so‘zlar (ekvivalentlar)ga ega bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalari, deb qaraladi.

Lakuna ham, realiya ham ekvivalentsiz leksika hisoblanadi. Ekvivalentsiz leksika ayrim tadqiqotlarda muqobilsiz leksika termini bilan ham yuritilmoqda. Tarjimonning tilda ifodalangan referensial ma‘nolarni tarjima qilishida duch keladigan qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, ulardan biri tarjima qilinadigan tilga oid bir qator ma‘nolarning o‘zaro mos kelmasligidir. Ikki tilning leksik birliklari o‘rtasidagi semantik moslik uch turga bo‘linadi:

1. To‘liq mos kelish.
2. Qisman mos kelish.
3. Umuman mos kelmaslik [Бархударов,1975:11].

Agar bir tildagi so‘zning muqobili boshqa tilda lug‘at tarkibida topilmasa, unda muqobilsiz leksika nazarda tutiladi. Bu termin Y.M.Vereshagin va V.G.Kostomarovlar tomonidan ilmiy iste‘molga kiritilgan. “Ular *muqobilsiz leksika* deganda, boshqa til va madaniyatda mavjud bo‘lmagan tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni, ma’lum bir madaniyatga xos so‘zlarni, ya’ni biror xalqni A, ikkinchi bir xalqni B deb olsak, shu A madaniyatiga xos, biroq B madaniyatida bo‘lmagan madaniy elementlar va A tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning muqobili B tilda mavjud bo‘lmaganligi tushuniladi” [Верещагин 1983:53]. Bundan ko‘rinadiki, ya’ni muqobilsiz so‘zlarning xarakterli tomoni ularni boshqa tilga tarjima qilib bo‘lmasligi va boshqa tildagi so‘zlarga mos kelmasligidir. Lekin ularni butkul tarjima qilib bo‘lmaydi, degan xulosaga kelish kerak emas. Ya’ni asl matndan tarjima qilinayotgan tushunchani va ular bilan bog‘liq bo‘lgan obrazlarni to‘g‘ri tarjima qila olish tarjima qilinayotgan tilda ifodalanayotgan voqelik bilan bog‘liq. Bu bilim ostida esa qiyosiy tilshunoslikda ham, tarjima nazariyasida ham fon bilimlari (фоновие знания) tushunchasi paydo bo‘ladi. Fon bilimlari bu – boshqa xalq, boshqa mamlakat hayot tarzini aks ettiruvchi haqiqiy fonni tashkil etuvchi tushunchalar majmuasi [Бархударов, 1975: 12].

“L.S.Barxudarov lakunalarni ekvivalentsiz leksika tarkibida izohlaydi va so‘z shaklning yoki turg‘un birikmaning mavjud bo‘lmasligi sifatida izohlaydi.” [Бархударов, 1975: 93].

Lakuna muammosi bilan jiddiy shug‘ullangan olimlardan yana biri V.Gak lakunalarni “til leksik sathidagi bo‘shliqlar, bor bo‘lishi kerak bo‘lgan so‘zlarning mavjud emasligi” [Гак, 1977: 261] deb izohlaydi.

Y.M.Vereshagin va V.G.Kostomarov fon bilimlarni kommunikativ akt qatnashchilari uchun umumiy deb hisoblashadi. Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etishda fon so‘zlari (фоновие слова) qiziqish uyg‘otadi. Fon so‘zlari – birinchi ko‘rinishda oddiy, boshqa tilga yorqin tarjima qilinadigan leksik birliklardir, biroq tilga oid bo‘lmagan faoliyatning milliy xususiyati haqidagi qimmatli ma’lumotni o‘z ichiga olgan so‘zlardir [Верещагин 1990: 22].

Tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun fon bilimlarining bir guruhi muhim o‘rin tutadiki, u ham bo‘lsa boshqa o‘lka, boshqa madaniyatga xos bo‘lgan borliq bo‘lib, ularning ma’nosini tarjima qilinayotgan til o‘quvchilari xatosiz tushuna olishlari kerak. Bunday fon bilimlarining bir qismi lakuna so‘zlardir. Ko‘rinadiki, fon so‘zlari tushunchaning umumiyligi va mavhumligiga ko‘ra lakunalardan farqlanadi. Lakunalar ma’lum bir tildagi bo‘shliqlar bo‘lib, yondosh tushunchalardan shu jihati bilan farqlanadi.

O.A.Ogursovaning fikricha, mazkur leksemalar qiyoslanayotgan tillarda o‘xshashi bo‘lmagan so‘zlardir. Olima *lakuna* terminini qo‘llashni ma’qul ko‘radi va uni so‘z birikmasi emas, konnotatsiyadan xoli bo‘lgan qisqa so‘z ekanligini; tasvirlanayotgan hodisaning farqlanish darajasi xususida so‘z yuritish mumkin bo‘lgani uchun unga nisbatan muqobilsiz terminini qo‘llashning o‘rinsiz ekanligini

qayd etadi. Lakuna hodisasining grammatik kategoriya sifatida umumlashtirish belgisiga ega ekanligi, lug‘at sathi va grammatik sathda kuzatilishini e‘tiborga oladi: “Lakuna qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud bo‘lgan va boshqasida uchramaydigan grammatik kategoriya, so‘zlar va so‘z birikmalaridir” [Огурцова, 1979: 79].

S.Vlaxov va S.Florinlar lakuna hodisasini ifoda vositalarining alohida kategoriyasi bo‘lgan realiyalar, ya’ni “biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalari” [Влахов, 1986: 55] sifatida talqin qilishgan.

Tilshunoslikda *neologizm* tushunchasi ham mavjud bo‘lib, lakuna bilan yondosh tushuncha sifatida ba’zan almashinib turadi. Lekin ular o‘rtasidagi farq tarjima jarayonlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Yangilik bo‘yog‘i bor leksemaga *neologizm* deyiladi (yunoncha *neos* – yangi). Har qanday *neologizm* dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko‘pchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos holda hosil qilingan bo‘lsa va tilda ma’lum ma’noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shundagina umumtil neologizmiga aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual nutq doirasida qolib ketadi. Umumxalq neologizmi tilda ma’lum vaqt ishlatilganidan keyin yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotadi va ko‘pincha odatdagi, zamonaviy leksemaga aylanib ketadi” [Рахматуллаев, 2006: 93].

Lakunalar bir tilda mavjud bo‘lib, ikkinchi til uchun muqobili yo‘q bo‘lgan predmet, harakat-holat, belgi-xususiyat nomlaridir. Bunday so‘zlar tarkibiga bir millatning maishiy va ruhiy dunyosiga daxldor bo‘lgan so‘zlar va predmetlarning nomlari kiradi. Dastavval realiya birlik sifatida real birliklar, mavjud narsa buyumlar olingan. Keyinchalik harakat-holat, mavhum tushunchalar ham realiya sifatida belgilangan.

Tilshunoslik sohasida lakuna tushunchasi juda muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Lakunalar fenomeni tilshunoslikning qiyosiy tahlilida va tarjimada katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda ma’lum bir tilga xos predmetlarni ifoda etuvchi so‘z va iboralar keng ma’noda lakunalar deb yuritiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳасанов А. Ўзбек адабий тилидаги лексик лакуналарнинг диалектал асослари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2021. – Б. 12-13.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975. – С.11.
3. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – М., 1990. – С.22.
4. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. – Л.: Просвещение, 1977. – С.261.

5. Огурцова О.А. К проблеме лакунарности //Функциональные особенности лингвистических единиц: Сб. трудов Кубанского ун-та. Вып.3. Краснодар: Изд-во Кубанского ун-та, 1979. – С. 79.
6. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. –М.:Высшая школа,1986. – С. 55.
7. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили (дарслик). – Тошкент: Университет, 2006. – Б.93.

**MUNDARIJA**

<i>Sirojiddinov Sh.</i>	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
<b>I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI</b>		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She‘riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta‘siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov B., Sharipova S. Istamova SH.</i>	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba‘zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92
<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek,</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107

<i>Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xūlasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177
<i>Utegenova O‘g‘iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning	191

	o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	
<i>Turg‘unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
<i>O‘ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G‘aybullayev Erkinjon</i>	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
<i>Turg‘unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik vositalarning o‘rni	274
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
<b>II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.</b>		

<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
<i>Ruzibaeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G‘ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilabaev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта изучения узбекского языка как второго	361
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga	385

	ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O‘rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443
<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O‘zbek tilidagi ayrim fe’l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova</i>	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa...	477

<i>Nargizaxon</i>		
<b>III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI</b>		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo‘ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалья: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509
<i>Otamirzayeva Sug‘diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohibjamol</i>	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539

<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
<b>IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI</b>		
<i>Ahmet Akalin</i>	Kültür taşıyıcısı olarak özbek dilinin diplomatik fonksiyonu	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Türk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboeva Khavojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581
<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
<b>V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI</b>		
<i>Tanju Seyhan</i>	Ali şir Nevâyî ve üslubunda fiillerin yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Farhad Rahimi</i>	Nezrali’nin çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine II	611
<i>Vahidə Cəfərzadə</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640

<i>Muhammadiyeva Dilafro ‘z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo‘ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo‘janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab’ ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan manbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O‘razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Görge Bay)	711
<i>Meryem Hamişoğlu</i>	Türkçenin ilk sözlüğü <i>Dîvânu lugâti't-türk'</i> ten özbek türkçesine bitki adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obykti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O‘tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Naimaxon Siddiqova</i>	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	The stylistic, linguistic and psycholinguistic analysis of femalemale forms of address in the texts	766

	of the book of “Dede Qorqud”	
<i>Roza Turdiyeva</i>	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	775